



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/NXRB6508

TOPONIMIKA FANI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Ahmedova Shaxnozaxon

ToshDO'TAU doktoranti

Annotatsiya. Toponimika fani kelib chiqish bosqichlari, o'rganish uchun muhim jihatlari. Toponimlar va ularning lisoniy jihatlari. Qardosh xalqlar adabiyotida toponimka fan sifatida o'rganilishi. Joy nomlari sohasining O'rta Osiyoda o'rganilishi. Tilshunosligimizda onomastika bilan bog'liq izlanishlar. Bu sohaning tilshunosligimizdagi ahamiyati xususida to'xtalib o'tamiz. Maqolani tayyorlashda qiyosiy-tarixiy, tavsifiy hamda tipologik tahlil metodlaridan foydalandik. Maqsad toponimikaning fan sifatida rivojlanish bosqichini klasifikatsiya qilish orqali bu sohaning qanchalik muhim ekanligini izohlashlash. Tizim taraqqiyotiga o'z hissamizni qo'shish. Shu orqali tilshunosligimiz rivojlanishi uchun kamarbasta bo'lish. Fan sifatidagi o'rnini mustahkamlash.

Annotation. The stages of the origin of the science of toponymy, important aspects for study. Toponyms and their linguistic aspects. The study of toponymy as a science in the literature of fraternal peoples. The structural structure of the field of place names. Research related to onomastics in our linguistics. We touched upon the importance of this field in our linguistics. We used comparative-historical, descriptive and typological analysis methods in preparing the article. The goal is to explain the importance of this field by classifying the stages of development of toponymy as a science. To contribute to the development of the system. In this way, to become a belt for the development of our linguistics. To strengthen its position as a science.

Абстрактный. Этапы зарождения науки топонимики, важные аспекты для изучения. Топонимы и их лингвистические аспекты. Изучение топонимии как науки в литературе братских народов. Структурная структура области топонимов. Исследования, связанные с ономастикой в нашей лингвистике. Мы коснулись важности этой области в нашей лингвистике. При подготовке статьи использовались методы сравнительно-исторического, описательного и типологического анализа. Цель — объяснить важность топонимики как дисциплины, классифицируя этапы ее развития. Внести вклад в развитие системы. Таким образом, мы можем стать катализатором развития нашей лингвистики. Укрепление ее позиций как науки.

Kalit so'zlar. Toponimika, onomastika, tarix va taraqqiyot, rivojlanishning nomlarga ta'siri.

Keywords: Toponymy, onomastics, history and development, the impact of development on names.

Ключевые слова. Топонимия, ономастика, история и развитие, влияние развития на названия.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zaminda har bir nom va uning o'ziga xos nomlanish tarixi bor. Xo'sh, bizga nomlash nima uchun zarur bo'lgan. Hech shubhasiz, insoniyat o'zi yashagan hududni boshqasidan farqlash uchun, albatta. Toponimika sohasi ayni shu nomshunoslik haqidagi fandir. Toponim so'zi (yunoncha topos – joy, makon, onima – nom, ism) – har qanday geografik ob'ektning atoqli oti, nomi, jumladan, gidronim, oykonim, oronim, urbanonim, agroonim va boshqalardan tarkib topadi²⁹. Toponim - geografik nom ham so'z.

²⁹ Ahmadaliyev Y.I. Toponimika va geografik terminshunoslik. – Farg'ona, 2018. – 10- b.



Hozirda geografik ob'ektlarning nomlarini o'rganadigan fan bu – toponomika hisoblanadi. Zamon rivojlanishi natijasida joylarning soni va nomi o'zgarib borishi mumkin. Atrofdagi geografik nomlar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq o'zgarib turuvchi ob'ektlar hisoblanadi. Joy tushunchasi, bu – yer yuzasida joylashgan barcha ob'ektlar va bu ob'ektlar o'z ustida joylashtirgan relefni o'zida mujassam etgan yer yuzasining kichik bir qismidir.³⁰Ularni nomlanishini o'rganish bizga juda ko'p imkoniyatlar eshigini ochadi. Jumladan nomni o'rganish orqali shu joy aholisi, uning tili, madaniyati, dunyoqarashi, kelib chiqishi bilan bog'liq bir qancha ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Biz hozir bu tadqiqotimizda nomlarning lingvistik jihatlariga e'tiborimizni qaratamiz. Ma'lumki, toponimlar atoqli otlardir. Atoqli otlar til taraqqiyotining qiyosan keyingi bosqichlarida turdosh otlardan kelib chiqqan. Qadimiy tillarda atoqli otlar bo'lmagan deyishadi. Avstraliya, Afrika va Amerikaning tub joy xalqlari – aborigenlar tillarida atoqli otlar juda kam ekan. Bunday tillarda turdosh otlar, qandaydir so'z birikmalari atoqli otlar vazifasini bajarar ekan. Ana shunday so'z birikmalari tobora turg'un shakl oladi. Odamlar tevarak-atrofidagi o'zlariga tanish kichik hududdagi joylarni «Baliq tutiladigan ko'l», «Sel keladigan soylik», «Qo'y qirilgan yayov», «Cho'chqali soy» kabi butun bir gaplardan iborat so'z birikmalari bilan ataydilar. Konkret geografik obyektlarni ifodalaydigan bunday so'z birikmalari va turdosh otlar ko'p bo'lmaganidan bora-bora atoqli otlarga aylanadi. Turdosh otlar ana shu yo'l bilan toponimlashadi, ya'ni toponimlarga aylanadi. Masalan, olma so'zi umuman olma bog'larmi ifodalaydigan umumiy tushuncha ekan, turdosh otligicha qolaveradi. Bu tushuncha individuallashtirsa, konkret bir obyektni ifodalay boshlasa va shunday qilib ayrim bir tushuriyatni bildirsa, atoqli otga aylanadi qoladi. Katta jar so'zlari individuallashtirsa, konkretlashmas, ya'ni biron obyektni ifodalamas ekan, salbiy relef shakllarini bildiradigan turdosh ot, apellyativ bo'lib qolaveradi. Shunday qilib, toponimlar geografik tushunchalarning konkretlashishi hamda individuallashtirishi jarayonida turdosh otlardan paydo bo'lgan va paydo bo'laveradi. Masalan, bug'doyzor bug'oy ekilgan har qanday dala, Bug'doyzor esa konkret bir joyning nomi kabi³¹.

Geografik nomlar turli davrlar guvohi. Turli soha olimlari - tilshunoslari, geograflar, tarixchilar, arxeologlar, geologlar, etnologlar toponimikaga murojaat qiladilar. Geografik nomlarga qarab o'tmishda qanday xalqlar yashaganini, turli millat xalqlarining o'zaro aloqalarini, ularning bir joyda n ikkinchi joyga ko'chib yurishini bilib olish mumkin. Toponimika va unga oid dastlabki ma'lumotlarni zardushtiylikning muqaddas kitobi „Avesto“ da, hamda Eron yozuvlari, hind va xitoy manbalarida toponimik ma'lumotlar. Qadimgi Eron yozuvlari O'rta Osiyo tarixi va toponimikasi haqida qadimiy va muhim manbalardandir. Bunday yozuvlar ahamiylarning qadimgi poytaxti Persopol'. shuningdek, Suza va Ekbatana (hozirgi Hamadon) shaharlari va uning atrofida topilgan. Qadimgi Xitoy, Hind, Yunon manbalarida ham yurtimiz

³⁰ Navro'zov. Xarbiy topografiya. – Toshkent, 2015. – 4 -b.

³¹ S.Qorayev. Toponimika.- Namangan, 2010. -10 -b.



toponimikasiga oid qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan. Shunisi aniqki, yurtimiz nomlariga oid aniq ma'lumotlar Strabonning „Geografiya“ nomli asarida keltirilgan. O'rta asrlarga kelib esa Abu Rayhon Beruniyning „Hudud ul-olam“ asarida ham joy nomlari haqida ancha keng ma'lumotlar keltirib o'tilgan.. Mahmud Koshg'ariyning „Devonu lug'otit turk“ , Boburning „Boburnoma“ asarlarida joy nomlarining lingvistik xususiyati va nomlanishiga oid qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Toponimika atamasining paydo bo'lganiga hali bir asr bo'lgani yo'q. Lekin toponimika masalalari tarix, geografiya, tilshunoslikka oid asarlarda qadim zamonlardan boshlab uchrab kelganini yuqoridagi asarlardagi ma'lumotlardan bilish mumkin. Toponimikaning fan sifatida rivojlanishida geografik sayyohlarning xizmati yuqori. Dastlab ular o'zlari sayohat qilgan yerlar haqida ma'lumot beruvchi qo'llanmalar yaratgan. Shu tariqa XIX asr oxiriaridan e'tiboran dunyoda amaliy grammatika, xususan kartografiya ehtiyojlari munosabati bilan toponimikaga qiziqish kuchaydi. Toponimikadan maxsus asarlar paydo bo'ldi, geografik nomlarni o'rganadigan komissiyalar va jamiyatlar tashkil etildi. Masalan, Angliyada 1923-yilda dunyoda birinchilardan bo'lib mamlakatdagi barcha toponimik ishlarni muvofiqlashtirish uchun Toponimika jamiyati tuzildi. Keyinchalik G'arbiy Yevropa, Fransiya, Germaniya, Polsha va boshqa mamlakatlarda ham xuddi shunday jamiyatlar yoki guruhlar paydo bo'la boshlagan. Rossiyada toponimik tadqiqotlar tarix, geografiya va filologiya fanlari vakillari tomonidan olib borildi. Akademik Shegreli (1794-1855), mashhur tarixchi va etnograf N.L.Nadejdin (1804-1856), tilshunos A.Kastreislar (1813-1852) rus toponimikasining dastlabki tadqiqotchilaridandir. 1847-yilda Rossiya Geografiya jamiyatida tuzilgan geografik terminologiyani o'rganish komissiyasi va Rus tili va adabiyoti havaskorlari jamiyati (1811-1930) toponimikaga katta ahamiyat berdi. 1904-yilda Rossiya geografiya jamiyati qoshida Kartografiya komissiyasi tuzildi. Rus toponimikasi bo'yicha A.Matveev, E.M.Mirzayev, V.A.Nikonov, A.Popov, A.V.Superanskaya, A.A.Refonmatskiy, B.A.Serebrennikov, V.N.Toporov, O.N.Trabadiyevning asarlari ma'lum va mashhur. Moskvalik yirik toponimistlardan biri V.A.Nikonov toponimikaning fan sifatida rivojlanishiga o'zining beqiyos hissasini qo'shdi. Uning Toponimikaga kirish nomli asarida bu soha haqida foydali fikrlar aytilgan. Uning yozishicha:„ Toponimlar tarix taqozosi ila vujudga keladigan ijtimoiy hodisa, geografik nomlarning tarkib topishida suffikslarning – Grammatik qo'shimchalarning ayniqsa slavyan toponimiyasida) katta o'rin tutishini alohida uqtirdi.Qardosh xalqlar ham toponimika sohasida bir qancha ishlar qilishgan va har bir xalq toponimlari bir-biridan farq qiladi. Xususan Q. Hakimovning „Toponimika“ darsligida bu haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Qozog'iston Respublikasi toponimiyasi. Qozog'iston toponimik landshafti nihoyat xilma-xil. Mamlakat hududidagi geografik nomlar shimoldan janubga qarab o'zgarib boradi. Toponimist olimlarning yozishicha, mamlakatning shim oliy hududlaridagi toponimlar ko'proq Sibir mintaqasidagi nomlarga o'xshaydi, janubiy hududlarda esa O'rta Osiyoga xos bo'lgan nomlarni ko'rish mumkin.



Qozog'istonda turkiy (qozoqcha) nomlardan tashqari so'g'diy, mo'g'ul, arab, ruscha toponimlari uchraydi.

Tojikiston Respublikasi toponimiyasi. Tojikiston hududidagi toponimlarning kelib chiqishi ancha murakkab. Tojik tili hind-evropa tillar oilasining eron guruhiga mansubligi bois, respublika toponimiyasining asosiy qismini eroniy (tojikcha) nomlar tashkil etadi. Tojikiston turkiy tilli davlatlar bilan chegaradosh va bu holat joy nomlarida o'z aksini topgan. Respublika-ning barcha hududlarida turkiy (o'zbekcha, qirg'izcha) toponimlarni uchratish mumkin. Xususan, O'zbekiston bilan chegaradosh bo'lgan, So'g'd viloyati toponimiyasi tarkibida o'zbekcha nomlarning salmog'i ancha katta.

Qirg'iziston Respublikasi toponimiyasi. O'rta Osiyoning boshqa mintaqalariga ko'ra Qirg'iziston toponimiyasi o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi. Respublika toponimiyasi tarkibida turli tillargaxos bo'lgan toponimlar salmog'i katta va ular har xil yo'llar va sabablar bilan paydo bo'lgan. Mintaqa geografik nomlari tarkibida qozoq tili elementlari ancha ko'p va bu holat ularni qadimdan yaqin qo'shni xalqlar bo'lganligidan dalolat beradi.

Turkmaniston Respublikasi toponimiyasi Turkmaniston joy nomlarining asosiy qismini turkiy (turkman) tillardan kelib chiqqan nomlar tashkil etadi. Respublika toponimiyasi tarkibida tabiiy omillar asosida shakllangan geografik nomlar (yaylov, qum, quduq, buloq) keng tarqalgan. Tipik turkmancha nomlarga Qizilsuv, Toshliq, Qumdog 'Qoraqum, N ebitdog\ K o p e d o g 4 va boshqalar misol bo'ladi. Turkmanistonda forsiy (eron) tillardan kelib chiqqan geografik nomlar ham ko'p. Masalan, Feruza, Sumbar, B o d x i z, M u r g ' o b, Herirud, Serhedobod, Lebap, C hoijuy kabi nomlar shular jumlasiga kiradi.

U toponimlarning bir-biri bilan bog'liq xolda paydo bo'lishining qator qonunini hamda geografik obyektlarning kam uchraydigan xarakterli xususiyatlarga qarab nom olishining nisbiy negativlik qonunini kashf etgan. Yurtimizda toponimikaga oid dastlabki ishlar arab geograflari tomonidan tuzilgan. O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston toponimikasiga oid dastlabki asarlardan biri vengriyalik olim Arminiy Vamberiyning (1832-1913) O'rta Osiyoga maxfiy sayohati mahsuli bo'lmish «Markaziy Osiyoning geografik nomlari» (nemis tilida) deb atalgan asaridir. Asarning lug'at qismida 600 ga yaqin geografik nom va atama alifbo tartibida berilgan. Bu esa o'sha davr uchun katta yutuq edi.³² O'zbekiston toponimiyasini tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan har bir mutaxassis M.S.Andreev, S.P.Tolstov, Y.G'.G'ulomov, B.A.Ahmedov, A.R.Muxammadjonov, M.Masson, O.D.Chexovich, A.A.Semenov, O.A.Suxareva kabi olimlarning tarixiy-geografik asarlaridan O'zbekiston toponimlarining ma'nosi, kelib chiqishi haqida talay materiallar topadi. O'zbekistonda toponimika fanining va geografik atamashunoslikning rivojlanishida professor H.H.Hasanovning xizmatlari katta. Olimning «Geografik nomlari imlosi» (1962) «O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan» (1965), —Geografik nomlar siri|| (1985), «Yer tili» (1977), «Geografiya atamaları lug'ati» (1966),

³² Qorayev S. Toponimika.- Namangan, 2010. -18- b.



«O'rta Osiyolik geograf va sayyohlar» (1964), «Sayyoh olimlar» (1981) kabi asarlarida, ko'plab risolalari va maqolalarida toponimikaga oid juda foydali ma'lumotlarni olish mumkin. Ilshunos toponimistlardan professorlar T.Nafasov, Z.Do'simov, dotsent N.Oxunov O'zbekistonda toponimikaning rivojlanishiga, toponimlarning nominatsion (nomlanish) qonunlarini ochib berishga salmoqli hissa qo'shdi va ko'plab joy nomlarining etimologiyasini aniqlab berdilar. O'zbekistonda toponimika fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri T.Nafasov O'zbekistonda birinchi bo'lib toponimikadan nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Keyinchalik sohaga oid bir qancha risola, maqolalar chop etdi.

Toponimikaga oid uning turli qirralarini ochishga :r qator olimlar samarali ishlar qilishgan. Har biri turli tomondan yondashgan. Hozir biz toponimkaning lingvistik jihatiga e'tiborimizni qaratamiz

Toponimika tilshunoslik (lingvistika) fani bilan ham uzviy bog'liq. Chunki, toponim - bu so'z, atoqli ot, lingvistik kategoriya, til mahsuli, shu bois til qonuniyatlariga bo'yso'nadi va filologlar tomonidan o'rganiladi. Nomlar tildagi muayyan qatlamning tarixi, shakllanishi, rivojlanishini o'zida aks etadi. Ma'lumki, tilshunoslikda atoqli otlami o'rganuvchi onomastika (yunoncha, onomastike - 41nom berish san'a ti") sohasi mavjud. Onomastika - atoqli otlami turlarini yoki onimlami o'rganadi, jumladan, kishilar ismi - antroponim, o'simlik nomlari - fitonim, hayvonlar nomi - zoonim, urug', qabila, xalqlar nomi - etnonim va hokazo. Shular qatorida geografik ob'ektlarning atoqli nomlariga yoki toponimlarga ham alohida e'tibor beradi³³. O'zbekiston toponimiyasini lingvistik aspektida o'rganish o'tgan asming 60- yillarida boshlandi. Tilshunos toponimist olimlardan T.Nafasov, E.Begmatov, Z .Do'simov, N.Oxunov, T.Enazarovlar O'zbekistonda toponimika fanining rivojlanishiga, geografik nomlarning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlashda, nomlanish qonuniyatlarini ochib berishda katta hissa qo'shganlar. O'zbekistonda toponimika xalq tabiiy geografik terminlari, ularning paydo bo'lishi, shakllanish xususiyatlari, tarqalish areallari, manbalari, ilmiy va o'quv adabiyotlarga kiritish tamoyillari kabi masalalar M.Mirakmalov tomonidan o'rganilgan.

Nomning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati. Har bir geografik nomda muayyan ma'no va mazmun yashirin, ulami o'rganish kishida o'tgan ajdodlariga nisbatan faxr va g'urur hissini uyg'otib, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi. Nomning ta'lim va tarbiyaviy ahamiyati juda yuqori. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Toponimlar ma'nosini izohlash, geografik ob'ektning o'ziga xos xususiyatlari haqida qo'shimcha ma'lumot beradi va o'quvchilar bilimlarini mustahkamlaydi. Xulosa qilib aytganda toponimika fani uch sohaning omixtasi, birlashgan nuqtasi sanaladi. Bu sohani o'rganish orqali nomga oid ham geografik, ham tarixiy ma'lumotlarni bilib olamiz. Har bir nomning kelib chiqishi shu nomga oid birliklarning yaratilishiga oid muhim voqelikni o'zida aks ettiradi.

³³ Hakimov Q. Toponimika. 26-b.



Lekin bu abadiy emas. Davr o'tishi bilan bu o'z xususiyatini yo'qotishi mumkin. Ammo shu nom qo'yilgan davr kishilari uchun juda ahamiyatli. Chunki nomda xalqning madaniyati, turmush-tarzi, urf-odatlar, tiliga oid muhim jihatlari o'z aksini topadi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillarida ayrim ruslashgan nomlar o'zbekcha nomlar bilan o'zgartirildi. Demak, xalqning madaniyatini aks ettiruvchi ko'zgu sifatida toponimika alohida ahamiyat kasb etadi. Bu fanni rivojlantirish tilshunoslik, tarix va geografiya fanlarining taraqqiy etishiga ham zamin bo'ladi. Biz ham bu maqolamizda toponimikaning fanlar orasidagi muhim soha ekanligini e'tirof etishni maqsad qildik. Chunki bu soha tilning lingvokulturologik jihatini ko'rsatuvchi muhim manbalar jamlanmasi desak xato qilmaymiz. Tildagi bu tizim rivojlantirish orqali ona tilimiz rivojiga hissa qo'shamiz. Shu orqali tilimizga bo'lgan hurmatimizni izhor etamiz. Davlatimiz rahbari aytganlaridek: *"Ma'lumki, milliy til har bir madaniy xalqning tarixi va o'zligini, ruhiy-ma'naviy dunyosini o'zida aks ettiradigan tengsiz boylikdir. Qadimiy tariximizning eng og'ir va sinovli davrlarida ham bizni yagona xalq sifatida birlashtirib, azaliy qadriyatlarimizni asrlar osha bezavol saqlab kelayotgan ona tilimizni har qancha ardoqlasak, ulug'lasak arziydi"*.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kun.uz/news/2024/10/21/til-har-qanday-xalq-uchun-hassos-va-tasirchan-masala-shavkat-mirziyoyev>
2. Hasanov H. Yer tili. – Toshkent, 1977. – 4 -b.
3. Малитский Н.Г. Ташкентская махалля. – Ташкент, 2020.
4. Q. Hakimov. Toponimika. – Toshkent, 2016.
5. S. Qorayev. Toponimika. – Namangan, 2010. – 18 -b.
6. Ahmadaliyev Y.I. Toponimika va geografik terminshunoslik. – Fargona, 2018. – 10 -b.
7. Navro'zov. Xarbiy topografiya. – Toshkent, 2015. – 4 -b.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/OTTH6981

O'ZBEK VA RUS TILLARI MUHOJIRAT VOSITALARI TADQIQIGA DOIR

Shirinova Yekaterina Turakulovna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

yekaterina@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-9164-5327

Annotatsiya

Murojaat vositalari eng muhim kommunikatsiya vositalaridan biri bo'lib, ular bizga suhbatdoshlarimizning e'tiborini jalb qilish, fikrlarimizni, his-tuyg'ularimizni ifoda etish va o'zaro munosabatga kirishishda yordam beradi. Muloqot jarayonida murojaat vositalari muhim o'rin tutadi. Murojaat vositalari deganda, biz suhbatdoshga yoki auditoriyaga yo'naltirilgan, ularning e'tiborini jalb qilish, hurmatini ko'rsatish, ijtimoiy maqomini belgilash kabi vazifalarni bajaruvchi verbal va noverbal vositalarni tushunamiz. Ushbu maqolada tilshunoslikda murojaat vositalarining o'rganilganlik darajasiga e'tibor qaratiladi hamda



Zhumagali İBRAGİMOV. KAZAK TÜRKCESİNİN TÜRKİSTAN AĞZINDA EDATLAR	245
Зульфия Ишкильдина, Светлана Косцова. СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ СТРУКТУРА СЛОВА В РУССКОМ И БАШКИРСКОМ ЯЗЫКАХ: СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АСПЕКТ	251
Ahmedova Shaxnozahon. TOPONIMIKA FANI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	256
Shirnova Yekaterina Turakulovna. O'ZBEK VA RUS TILLARI MUROJAAT VOSITALARI TADQIQIGA DOIR	261
Aynur Cəfərova. QARAQALPAQ DİLİNDƏ KONSONATLARIN (SAMİTLƏRİN) İŞLƏNMƏSİ	267
IV SHU'BA. TURKIY XALQLARNING UMUMIY MADANIY MEROSI	
Аминев Закирьян Галимьянович. ОБ АРХАИЧЕСКИХ БАШКИРСКИХ ЭПОСАХ «УРАЛ БАТЫР» И «АКБУЗАТ»	275
Турганбаев Нурмамат Орозович. БАЙЫРКЫ ТАШ ЖАЗМА ЭСТЕЛИКТЕРДЕГИ ОРТОК СӨЗДӨР	278
Адилбекова Эльмира Сейтимовна, Емре Гүлже. TÜRK ANLATI GELENEĞİNDEKİ GÖLGE OYUNLARI: KARAGÖZ	286
Turgay AKDURUŞ. RENKLERİN SİYASİ VE TOPLUMSAL OLAYLARDA KULLANIMI	295
Filiz GÜVEN, Zeynep AVCI. İŞLEVSEL TİPTEN BELLEKSEL TEMSİLE: EMİR TİMUR'UN TÜRKİYE SAHASINDAKİ HALK ANLATILARINDA TİPOLOJİK DÖNÜŞÜMÜ	303
Камалова Гульдар Рашитовна, Шакурова Шаура Рашитовна. НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ И ВКЛАД ВЫДАЮЩЕГОСЯ УЧЕНОГО-ТЮРКОЛОГА РАШИТА ШАКУРОВА В ГУМАНИТАРНУЮ НАУКУ	312
Алиева Ляззат Бердуақасқызы, Ұлас Жанниет. TÜRK MODERNLEŞMESİNİN TAŞIYICI GÜCÜ: HALK TİYATROSU	322
Əhmədova Səbirə Şövqi qızı. SƏMƏRQƏND ŞƏHƏRİNİN TARİXİ MEMARLIQ ABİDƏLƏRİ	328
Fatimə Salmanova. AZƏRBAYCAN MUĞAMI	334
Sobirova E'zoza G'ayrat qizi. TURKIY XALQLARNING MILLIY QADRIYATLARINI TALQIN ETISH	339
Ayan Əlizadə. QƏRBİ AZƏRBAYCAN BÖLGƏSİNİN ZƏNGİN MƏTBƏXİ	341
Həsənova Ülkər Fikrət. TARİX DƏRSLƏRİNDƏ AKMEOLOJİ SƏRİŞTƏNİN FORMALAŞDIRILMASINDA İSTİFADƏ OLUNAN ÜSUL VƏ VASİTƏLƏR	348
Aysel Hüseynova. UŞA-QARABAĞIN MƏDƏNİ İNCİSİ	353
Hüseynova Fatimə. AZƏRBAYCAN VƏ ÖZBƏK XALÇALARI	359
Zülfıqarova Aytən. ÇÖVKƏN OYUNU	367
Abbosova Mubina. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR - TURKIY MADANIYAT TARG'IBOTCHISI	371

